

## SINTAKTIK QURILMALAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI TO‘G‘RISIDA

*Müller-Buck Renatte Tubengan<sup>1</sup>, O. Jumayev<sup>2</sup>, S. Anorqulov<sup>3</sup>*

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolada biz nemishunoslarning ajralish hodisasini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilamiz va ularga o‘z munosabatimizni bildiramiz. Ushbu maqolada, shuningdek, bo‘linish hodisasi va dastur hodisasi o‘rtasidagi o‘xshashliklarni va ularning jumladagi funktsiyalarini muhokama qilamiz.

*Kalit so‘zlar:* yakka gap, murakkab sintaktik yaxlit, bo‘lishsizlikli sintaktik vositalar, intonatsiya, stilistik hodisa, ajratish hodisasi, predmetli ayirma gaplar, sintaktik bog‘lanish, semantik vazifa, fenomenal qo‘llanish.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/2x8nox23>

Ajratilgan bo‘laklar yakka yoki kengaygan holda kelishi bilan sodda gap strukturasini murakkablashtiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Gap tarkibida ularga xos bo‘lgan bunday kengayish xususiyatlariga tayangan holda, biz ajratilgan bo‘laklar faqatgina sodda gapning strukturasini murakkablashtiruvchi vosita sifatida emas, balki o‘z-o‘zini murakkablashtiruvchi vosita kabi ham qo‘llanishi mumkin ekanligini alohida ta’kidlashimiz lozim. Ajratilgan bo‘laklarning o‘zini-o‘zi murakkablashtirib ifodalanishi natijasida ularning ma’no xususiyatlari butun sodda gapning ma’no xususiyatlariga qaraganda muhim, hal qiluvchi omilga aylanadi. Ajratilgan bo‘laklarning bu shaklda strukturaviy kengayishi uning ma’nosи, mazmuni jihatidan asosiy gapdan ustun turadi, shu sababli sodda gaplarning mazmuni sezilarsiz daraja bo‘lgandek bo‘lib ko‘rinadi. Ajratilgan bo‘laklarga xos bo‘lgan bunday holatni V.G.Admoni quyidagicha ta’kidlab o‘tadi: “Ergash gaplarga xos bo‘lgan grammatik tobeklik, ularning ma’noviy tobekligini anglatishi emas, aksincha, ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida ergash gaplarning bosh gapga nisbatan ma’no xususiyatlari asosiy va yetakchi xususiyatga ega bo‘ladi, bu holatda bosh gaplar ikkinchi darajali yoki yordamchi vositalarga aylanib qoladi”.

Ajratilgan gap bo‘laklari va boshqa bo‘laklar ma’lum munosabatlar mavjudligidan sintaktik aloqlarda namoyon bo‘ladi. Bunday aloqalar bizning ishimiz doirasida, birinchidan ajratilgan gap bo‘laklari bilan ma’lum gap bo‘lagi o‘rtasidagi aloqani bildirsa, ikkinchidan esa gapning kesimi orqali ajratilgan gap bo‘laklarining butun gap mazmuni bilan aloqaga kirishini taqozo etadi. Ushbu tezisni tasdiqlovchi quyidagi fikrni keltirishni o‘rinli deb hisoblaymiz. K.N.Kiyatkina fransuz tilida aniqlovchili ajratilgan gap bo‘laklarini o‘rganib, shunday xulosaga keladi: “Aniqlovchili ajratilgan gap bo‘laklarining mazmuni matnga nisbatan bo‘lgan munosabatlarida aniqlanadi. Natijada, ikki tomonlama mazmuniy bog‘liqlik namoyon bo‘ladi, ajratilgan bo‘lak ham oldingi ham keyingi gap bilan aloqa munosabatiga kirishadi”.

K.N.Kiyatkinaning ilmiy tadqiqotini kengaytigan holda I.N.Yumatova ham aniqlovchili ajratilgan bo‘laklarning gapda joylashish o‘rniga ko‘ra quyidagi fikrni bildiradi: “Ko‘p hollarda sifat fe’ldan keyingi o‘rinda joylashgan hol bilan ifodalangan so‘zlardan (yoki so‘z guruuhlaridan) so‘ng ajratish hodisasiga uchraydi”. P.R.Parchiyeva fransuz tilidagi

<sup>1</sup> Müller-Buck Renatte Tubengan, Germaniya universiteti professori

<sup>2</sup> Jumayev O.K., Nemis filologiyasi kafedrasи dotsenti

<sup>3</sup> Anorqulov S.I., Nemis filologiyasi kafedrasи dotsenti

ajratilgan gap bo'laklarining denotativ-referent (sintaktik) funksiyalari bilan bir qatorda, ularning kommunikativ-intensional (pragmatik) funksiyalariga ahamiyat beradi.

K.N.Kiyatkinaning bunday fikr-mulohazalari ajratilgan gap bo'laklarining lingvistik mohiyatining asl ma'nosini ifodalovchi yangi tushunchalarni keltirib chiqarishiga sabab bo'ladi. Uning shunday ekanligini keyingi ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalaridan ham bilib olish mumkin. Masalan, K.G.Krushelniskaya va T.A.Sviblovalar ajratilgan gap bo'laklari – “yalpi qo'shimcha ma'no” beruvchi gap bo'laklaridir deb ta'rif berishadi. G.N.Eyxbaum qo'shimcha ma'no beruvchi ajratilgan gap bo'lagiga nisbatan “rema” tushunchasini qo'llab, uni quyidagicha izohlaydi:

“Dieser Schiff, ein deutscher, fährt im Jahre 1933 von Vera nach Bremenhaven”.

(Bu kema, nemislarniki, 1933 yilda Veradan Bremenxafenga boradi).

Sxema: [Ega (Tema) – Ajratilgan gap bo'lagi (Rema) – kesim (Rema) – hol (Rema)].

Demak, bu yerda rema vazifasida keluvchi – ein deutsches – shaklidagi ajratilgan gap bo'lagining ma'nesi “qo'shimcha” ma'nodir, chunki – u eganing, ya'ni temaning mazmunini aniqlaydi, izohlaydi, konkretlashtiradi. Bu bilan muallif ajratilgan gap bo'laklariga nisbatan “tema” va “rema” tushunchalarini kiritib, L.P.Nesterovaning murakkab gap tarkibida “ikki xil kommunikativ markaz hosil bo'ladi, ulardan biri ajratilgan bo'laklar tarkibida, ikkinchisi esa tayanch gap tarkibida” degan qaydini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan bunday xususiyatlarni o'rganayotib, hatto olimlarning “Apposition” terminologik tushunchasiga nisbatan munosabatlari bir xil emasligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Albatta, bu munosabat bir xil ham bo'lmaydi, chunki har bir tadqiqotchi o'zi tanlagen mavzuga o'zi tanlagen usulda yondasha oladi, shuning uchun ham yondashuvlar bir xil bo'lmaydi, bu qonuniyat. Uning shunday ekanligini, biz “Apposition” tushunchasining izohlanishida ham ko'ramiz. Ushbu terminologik tushunchadan ham germanshunos olimlar turli xil sohalarda foydalanganlar. Masalan, F. Blats ushbu terminni aniqlovchili, infinitivli, shuningdek qisqa shaklda sifat va sifatdoshlar shaklida ifodalanib kelgan ajratilgan bo'laklarga nisbatan qo'llaydi. V.A.Admoni esa ushbu termindan barcha aniqlovchili ajratilgan bo'laklarni (moslashadigan va moslashmaydigan, o'zgaradigan va o'zgarmaydigan), shuningdek birinchi o'rinda keluvchi va so'z tartibiga ma'lum darajada ta'sir etuvchi atributivli ajratilgan bo'laklarni nomlash uchun foydalaniadi. Rus tilshunosi A.G.Rudnev ushbu terminning qo'llanish doirasini nihoyatda kengaytirgan holatda shunday yozadi: “har qanday gap bo'lagi, grammatik ifodalanish usullaridan qat'i nazar bir-birlariga nisbatan izohlovchili gap bo'laklari vazifasida kelaolishi mumkin: chunonchi aniqlovchi aniqlovchiga nisbatan, kesim kesimga nisbatan, hol holga nisbatan va hokazo”. Germanshunos olim Ye.I.Shendels esa ushbu holatni boshqacharoq mazmunda tushuntirib berishni afzal ko'radi:

“Das Jahr hat zwölf Monate: Januar, Februar, März... ”

(Bir yilda 12 ta oy bor: yanvar, fevral, mart...).

Ajratilgan bo'laklar ham turli-tuman obruzli so'z va so'z birikmalari shakllarida ifodalanib kelib, matnlar doirasida har xil stilistik funksiyalarni bajaradi. Ajratilgan bo'laklarni strukturaviy tahlil qilish natijasida badiiy asar matnlarida ajratilgan bo'laklarning asosiy funksiyasini, muallifning axborotini ifodalash uchun asosiy belgilab ko'rsatmoqchi bo'lgan maqsadini tushunish mumkin. Ajratilgan bo'lakning pragmatik vazifasini aniqlash uchun “Nima maqsadda muallif fikrning aynan ushbu bo'lagini ajratgan?” degan savolga javob qidirish talab etiladi, bunda ajratilgan bo'lak sifatida birga kelgan matnning asosiy ma'nosini konkretlashtiruvchi leksik birliklarni inobatga olgan holda kontekstni tahlil qilish, matnda tasvirlangan vaziyatni tushunish kerak. Misollar tahlilidan biz ikki turdag'i intensiyani aniqlay oldik, birinchisi axborot berish intensiyasi, asosiy narsani ta'kidlash, aniqlashtirish, konkretlashtirish, fikrni kuchaytirish o'z hukmiga ega bo'lgan ishonch, xulosa chiqarish bo'lib hisoblanadi. Ikkinchisi esa o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qilish bilan bog'liq intensiyani hosil etadi.

A.X.Mambetniyazova ba'zi bir turdagи izohlovchilar yagona bitta umumiyl so'zga taaluqli bo'lishini eslatib, bunday sharoitlarda ularni uyushiq gap bo'laklari deb tahlil qilish kerakligini qayd etadi. Uning fikricha, agarda umumiyl so'z ega bo'lsa, u holda unga tobe bo'lgan uyushgan gap bo'laklarini ega sifatida, agarda to'ldiruvchi bo'lsa, u holda uyushgan gap bo'laklarini to'ldiruvchi sifatida izohlash maqsadga muvofiqdir".

Mazkur tadqiqot doirasida Ye.I.Shendels, G.Admoni, Ye.V.Guliga kabi olimlarning fikr-mulohazalariga tayangan holda, ega vazifasida keluvchi ajratilgan gap bo'laklarini matn tarkibida uchraydigan shakllariga xos bo'lgan xususiyatlarni izohlab berishga harakat qilamiz. Ajratilgan gap bo'laklarini o'rganishga bo'lgan bunday yondashuv ularning sintaktik tabiatini, ifodalanish usullarini, sintaktik konstruksiyalar tarkibida tutgan o'rnini, struktura tuzilishini, yolg'iz yoki kengaygan holatlarda kelishini, boshqa gap bo'lagi bilan aloqa vositalarini, birikish usullarini, semantik, stilistik va kommunikativ vazifalarini to'g'ri talqin qilish uchun imkoniyat yaratadi. Ega shaklidagi ajratilgan gap bo'laklariga xos bo'lgan xususiyatlarni ikki yo'nalishda yoritib berishni lozim topamiz: 1) semantik sherigi olmosh shaklida ifodalanib keluvchi ajratilgan gap bo'laklarining sintaktik va semantik xususiyatlari; 2) semantik sherigi ot shaklida ifodalanib keluvchi ajratilgan gap bo'laklarining sintaktik va semantik xususiyatlari.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, ajratilgan bo'lak ishtirok etayotgan murakkab gap tarkibida semantik sherik (ya'ni tayanch komponent, antesedent, ma'lum gap bo'lagi, asosiy gap bo'lagi, oddiy gap bo'lagi, izohlanmish, izohlanayotgan bo'lak va boshqalar) muhim rol o'ynaydi, chunki yuzaga kelayotgan har qanday ajratilgan gap bo'lagi, aynan ana shu semantik sherikning mazmun talabiga mos ravishda u yoki bu kommunikativ vazifasini bajaradi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

- [1]. Адмони В.Г. *Введение в синтаксис современного немецкого языка*. - М.: 1955. - С.306.
- [2]. Кияткина К.Н. *Значения обособленных определений и способы их выявления // Структура предложения и лексико-грамматические отношения*. - Л., 1972. - С.71.
- [3]. Крушельницкая К.Г. *К вопросу о смысловом членении предложения // - «Вопросы языкоznания», 1956, №5. С.60.*
- [4]. Мамбетниyазова А.Х. *Ҳозирги замон немис тилида тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлак сифатида бажариб келадиган коммуникатив прагматик функциялари. Автореф. дисс.... PhD, С. 2021. - Б.20.*
- [5]. Нестерова Л.П. *Интонация предложений с обособленными атрибутивными конструкциями в немецком языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - М., 1969. - С.10.*
- [6]. Парчиева П.Р. *Обособление членов предложения в современном французском языке как явление сверхфразового уровня: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: - М., 1986. - С.27.*
- [7]. Руднев А.Г. *Синтаксис осложненного предложения*. - М., 1959.- С.3-4.
- [8]. Свиблова Т.А. *Обособленное члены предложения в современном немецком языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1966. - С.9.*
- [9]. Шендельс Е.И. *Грамматика немецкого языка*. М., 1952. - С.270.
- [10]. Юматова И. Н. *О семантико-синтаксической функции обособленного определения во французском языке// Ученые записки ЛГУ №350. Серия филологических наук, вып.75. Романское языкоznание.1972, - С.166-177.*